

**Ekologik muammolar yechimiga qaratilgan “Yashil innovatsiyalar”
tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar.

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi “Yashil tashabbuslar”ni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan yoshlarning ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash, yashil energiya manbalaridan foydalanish kabi innovatsion g‘oyalar va texnik ishlanmalarini (keyingi o‘rinlarda – ekologik loyihalar) qo‘llab-quvvatlash tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Ko‘rgazma—yoshlar tomonidan ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan innovatsion g‘oyalar va texnik ishlanmalarning ommaviy taqdimoti, baholanishi va targ‘ib qilinishi jarayoni.

Ishtirokchi—tanlovda o‘z ekologik loyihasi (innovatsion g‘oyalar va texnik ishlanma) bilan qatnashayotgan 14 yoshga to‘lgan 30 yoshdan oshmagan yoshlar.

Ekspertlar guruhi—tegishli soha mutaxassislaridan tashkil topgan, tanlovda ekologik loyihalarni baholovchi va g‘oliblarni aniqlovchi guruh.

Taqdimot—ekologik loyihani ko‘rgazma davomida ishtirokchilar tomonidan og‘zaki, yozma yoki texnik vositalar orqali taqdim etish, uning maqsadi, natijalari va foydasini tushuntirish jarayoni.

Innovatsion g‘oya—bu atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish yoki qayta ishlash, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan yangi yechim, texnologiya yoki tashabbus.

Prototip (texnik ishlanma)—bu ekologik loyiha g‘oyasining texnik modeli, ishlab chiqarish namunasi yoki amaliy sinovdan o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan ishchi namunasi.

Ishchi organ — Tanlov natijasiga ko‘ra g‘olib deb topilgan ishtirokchilar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq moliyalashtirilgan mablag‘larni maqsadli sarflanishini monitoring qiluvchi, Yoshlar ishlari agentligining direktorining buyrug‘i bilan yetti nafardan kam bo‘lgan mas’ul xodimlar va soha mutaxassislari.

3. Ekologik muammolar yechimiga qaratilgan “Yashil innovatsiyalar” tanlovi (keyingi o‘rinlarda - tanlov) har yili yanvar-aprel oylari davomida ikki bosqichda (hududiy va respublika) tashkil etiladi.

2-bob. Tanlovni o'tkazish va ishtirok etish tartibi.

4.Tanlov quyidagi muddatlarga muvofiq o'tkaziladi:

Ishtirok etish uchun arizalar **20-yanvardan 20-fevralga qadar** yashiltashabbus.uz elektron platformasi orqali topshiriladi.

Mazkur elektron platformada har bir ishtirokchi alohida shaxsiy profil yaratadi. Ishtirokchilarning loyihalari, taqdimot materiallari va boshqa tegishli hujjatlari ushbu shaxsiy profilga kirish orqali yuklanadi hamda ishtirokchilarning ma'lumotlari maxfiylik va axborot xavfsizligi talablari asosida saqlanadi.

1-bosqich: tanlovning hududiy saralash bosqichi **15-martga qadar** o'tkaziladi;

2- bosqich: tanlovning respublika yakuniy bosqichi **10-aprelga qadar** tashkil etiladi;

5.Tanlov ishtirokchilari quyidagi yosh toifalari bo'yicha saralanadi:

14–18 yosh toifasidagi ishtirokchilar:

- tanlovda g'oya, taqdimot ko'rinishida yoki qo'l ishlanmalari (maket) shaklida taqdim etishi zarur;

- ushbu toifadagi ishtirokchilar orasidan hududiy bosqichda har bir hududdan 10 nafargacha loyiha mualliflari saralanadi;

- respublika bosqichida mazkur toifadagi ishtirokchilar orasidan 12 nafargacha g'oliblar aniqlanadi.

19–30 yosh toifasidagi ishtirokchilar:

- tanlovda amalda ishlaydigan loyiha prototipini taqdim etish talab etiladi;

- ushbu toifadagi ishtirokchilar orasidan hududiy bosqichda har bir hududdan 10 nafargacha loyiha muallifi saralanadi;

- respublika bosqichida ishtirokchilar orasidan 12 nafargacha g'oliblar aniqlanadi.

6.Tanlovda ishtirokchilar yakka tartibda yoki 3 (uch) nafargacha a'zodan iborat guruh sifatida ishtirok etishlari mumkin. Bunda,

- guruh tarkibida (jamoadi) ixtisoslashgan sohalar bo'yicha bilim va tajribaga ega bo'lgan yoshlar (yoki boshqa mutaxassislar) ishtirok etishiga ruxsat beriladi.

- har bir ishtirokchi yoki jamoa tanlovda faqat bitta loyiha (g'oya, prototip (texnik ishlanma) bilan qatnashishi mumkin.

- ariza bilan birga loyiha tavsifi, rasmlari, taqdimot materiallari va zarur texnik hujjatlar ham topshirilishi kerak.

7.Tanlovda namoyish etiladigan ekologik loyihalar (g'oya, prototip (texnik ishlanma)) quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi talab etiladi:

a) Atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishlarini yumshatish, chiqindilarni qayta ishlash va kamaytirish:

- havo, suv va tuproq ifloslanishini kamaytirish bo'yicha innovatsion texnologiyalar;

- tabiiy resurslardan samarali foydalanish usullari;

chiqindilarni saralash, qayta ishlash va ularni energiyaga aylantirish innovatsiyalari;

atmosfera ga chiqariladigan issiqxona gazlari (ayniqsa karbonat angidrid) miqdorini kamaytirishga qaratilgan innovatsion yondashuv va texnologiya;

b) Qayta tiklanuvchi energiya manbalari:

quyosh, shamol, bioyoqilg'i va boshqa ekologik toza energiya manbalarini rivojlantirish;

energiya tejankor texnologiyalar va qurilmalar yaratish;

d) Innovatsion ekologik texnologiyalar, qurilmalar va veb-ishlanmalar:

atrof-muhitni tozalashga mo'ljallangan robotlar, sensorlar va boshqa qurilmalar;

mobil-ilovalar, onlayn platformalar orqali ekologik monitoring va nazorat vositalari;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan boshqa loyihalar.

3-bob. Tanlovga kelib tushgan ekologik loyihalarni ko'rib chiqish, baholash va g'oliblarni aniqlash tartibi.

8.Taqdimot asosida har bir ekologik loyiha ekspertlar guruhi tomonidan mazkur nizomning ilovasida ko'rsatilgan baholash mezonlari asosida baholanadi.

9.Ekspertlar guruhi a'zolari har bir ekologik loyiha baholash mezonlariga asosan 100 ballik tizimdan foydalangan holda baholaydi. Ekspertlar guruhi a'zolarining baholari bayonnomada qayd etiladi.

10.Ekspertlar guruhi tomonidan baholangan ekologik loyihalarning yakuniy ballari ekspertlar guruhi a'zolari ballarining o'rtacha arifmetik qiymati bilan belgilanadi.

11.Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilarning yakuniy ballari bir xil bo'lgan hollarda g'oliblar ekspertlar guruhi a'zolari tomonidan ovoz berish yo'li bilan aniqlanadi.

12.Tanlovda mazkur nizomning 7-bandida ko'rsatilgan 3 ta asosiy yo'nalish bo'yicha g'oliblar ikki yosh toifasi bo'yicha, hududiy va respublika bosqichlarida alohida tartibda aniqlanadi.

13.Ekspertlar guruhi baholariga asosan yakuniy ballari eng yuqori hisoblangan ekologik loyihalar ro'yxati shakllantiriladi hamda g'oliblar ro'yxati tasdiqlanadi.

4-bob. Tanlov g'oliblarini rag'batlantirish tartibi.

14.Tanlovning **hududiy bosqichida** saralangan loyiha mualliflari quyidagi bir martalik pul mukofotlari bilan rag'batlantiriladi:

14-18 yosh toifasida saralangan 10 nafargacha ishtirokchiga – har biriga bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt barobari miqdorida pul mukofotlari beriladi.

19-30 yoshlilar toifasida saralangan 10 nafar ishtirokchiga – har biriga bazaviy hisoblash miqdorining besh barobari miqdorida pul mukofotlari beriladi.

respublika bosqichi g‘oliblari quyidagi miqdorda bir martalik pul mukofotlari bilan rag‘batlantiriladi:

14-18 yosh toifasida:

g‘olib bo‘lgan ishtirokchilarga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha bo‘lgan miqdorda pul mukofotlari bilan rag‘batlantiriladi.

19-30 yosh toifasida:

g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar bazaviy hisoblash miqdorining 250 baravarigacha bo‘lgan miqdorda pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi.

Mazkur pul mukofotlari miqdori loyiha (g‘oya, prototip (texnik ishlanma)ning moliyaviy rejasiga muvofiq belgilanadi.

15.Ekspertlar guruhi tomonidan g‘olib deb topilgan loyihalarni rag‘batlantirish, Yoshlar ishlari agentligi direktorining buyrug‘iga asosan pul mablag‘lari ularning nomiga ochilgan bank kartasiga 20 ish kuni ichida o‘tkazib beriladi.

Loyihalarni bajarish uchun, Yoshlar ishlari agentligi hamda loyiha g‘olibi o‘rtasida ikki tomonlama shartnoma tuziladi.

Loyihalarni amalga oshirishda hisob-kitoblar va moliyaviy rejaning shakllari tartibi, xarajatlarning hajmi hamda turlarini loyiha ijrochilari tomonidan shakllantiriladi.

Ajratilgan mablag‘lar ilmiy izlanishlar olib borishga, shuningdek, ish haqidan tashqari, umumiy mablag‘ning kamida 40 foizi ilmiy asbob-uskunalar, xomashyolar hamda boshqa zarur materiallarni xarid qilish va natijada yuqori qiymatga ega, tijoratlashtirish imkoni yuqori bo‘lgan yangi mahsulot (xizmat)larni ishlab chiqarishni ta’minlashga yo‘naltirilishi lozim.

16.Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq quyidagi xarajatlar Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi: Bunda,

- tanlov o‘tkaziladigan bino va joylarni ijarasi va uni jihozlash xarajatlari;
- g‘oliblarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlar.

5-bob. Ajratilgan mablag‘larni monitoring qilish tartibi.

17.Loyihalarning ijrochilari shartnomada belgilangan muddatda ishchi organga hisobot taqdim etadi hamda taqdim etilgan hisobotlar ishchi organ

tomonidan monitoring qilinadi. Bunda, ishchi organ tarkibiga qo'shimcha ravishda soha mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

19. Ishchi organ besh ish kuni muddatida monitoring natijalari bo'yicha umumlashtirilgan hisobotni Yoshlar ishlari agentligi direktoriga taqdim qiladi.

20. Shartnomada belgilangan muddatda rejalashtirilgan ishlar bajarilmaganligi hamda loyihalar bo'yicha hisobotlarni taqdim etish bo'yicha muddatlar buzilishi moliyalashtirishni to'xtatish, shuningdek, tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomani bekor qilish uchun asos bo'ladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar.

21. Tanlov to'g'risidagi ma'lumotlar va uning natijalari tashkilotchilarning rasmiy veb-sayti va boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

22. Tanlovni o'tkazish jarayonlari bo'yicha kelib chiqadigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

23. Tanlov yakunlari bo'yicha ekspertlar guruhi tomonidan qabul qilingan g'oliblarni aniqlash to'g'risidagi qaror yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi, faqat tanlov jarayonida belgilangan tartiblarning buzilgani asosli ravishda tasdiqlangan holatlar mustasno.

24. Ishtirokchilar Jamg'arma tomonidan e'lon qilingan boshqa tanlovlarda "Yashil innovatsiyalar" tanloviga topshirgan loyihasi bilan ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

25. Loyiha g'oliblari mablag'lar sarfi bo'yicha barcha turdagi moliyaviy xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlarni (chek, hisob-faktura va boshqa hujjatlar) hamda amalga oshiriyotgan ishlarining foto-lavhalarini yashiltashabbus.uz saytida ochilgan shaxsiy akkautiga har oyning 5-sanasiga qadar yuklab borishlari talab etiladi. Ajratilgan mablag'larning maqsadsiz sarflangani aniqlangan taqdirda, qonunda belgilangan tartibda o'rganish o'tkazilib, ajratilgan mablag'ni qaytarish choralari ko'riladi.

26. Tanlovga taqdim etilgan innovatsion ekologik loyihalarga nisbatan mualliflik huquqi va intellektual mulk huquqi loyiha muallifiga tegishli bo'lib qoladi. Loyiha materiallaridan foydalanish faqat muallifning roziligi asosida amalga oshiriladi.

27. Agentlik tanlov yakunidan so'ng bir oy muddatda Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga amalga oshirilgan ishlar tanlovda qatnashgan loyihalar va g'oliblari haqida ma'lumotlarni yuboradi.

Ekologik muammolar yechimiga qaratilgan
“Yashil innovatsiyalar” tanlovini o‘tkazish
to‘g‘risidagi nizomga ilova.

**Ekologik muammolar yechimiga qaratilgan “Yashil innovatsiyalar”
tanloviga ishtirok etadigan ekologik loyihalarni baholash mezonlari**

1. Atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurash, chiqindilarni qayta ishlash va kamaytirish yo‘nalishi uchun baholash mezonlari:

T/r	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1.	Atrof-muhitni muhofaza qilishdagi samaradorlik	20 ball
2.	Tabiiy resurslardan foydalanishda innovatsion yondashuv	20 ball
3.	Ilmiy va texnologik asoslanganlik darajasi	20 ball
4.	Loyiha prototipi yoki modelining holati va tayyorlik darajasi	20 ball
5.	Loyihaning amaliyotda qo‘llanish imkoniyati	20 ball
Jami:		100 ball

2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari yo‘nalishi uchun baholash mezonlari:

T/r	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1.	Yaratilgan texnologiyaning ekologik tozaligi va samaradorligi	25 ball
2.	Energiyani tejovchi xususiyatlar va rentabellik	20 ball
3.	Innovatsionlik darajasi (yangi texnologiya yoki yechim)	20 ball
4.	Loyiha prototipi yoki modelining holati va tayyorlik darajasi	15 ball
5.	Loyihaning ishlab chiqarishga joriy etish imkoniyati	20 ball
Jami:		100 ball

3. Innovatsion ekologik texnologiyalar va qurilmalar yoʻnalishi uchun baholash mezonlari:

T/r	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1.	Innovatsion texnologiyaning ekologik samaradorligi	25 ball
2.	Dolzarbligi va ekologik yoʻnalishga mosligi	20 ball
3.	Innovatsion yondashuv (ilgʻor usul yoki texnologiya)	20 ball
4.	Loyiha prototipi yoki modelining holati va tayyorlik darajasi	15 ball
5.	Amaliyotga tatbiq qilish imkoniyati	20 ball
Jami:		100 ball